



HARVARD
DataVERSE

Volume 2 Issue 4
September 2024

ISSN: 2992-8877



Innovation Science and Research

International scientific journal



zenodo



IC WORLD OF JOURNALS

www.sciencejournal.uz

**International Scientific Journal
INNOVATION
SCIENCE AND RESEARCH
Volume 2 Issue 4
September 2024**



SCIENCEJOURNAL.UZ

**International Scientific Journal INNOVATION SCIENCE AND
RESEARCH.** volume 2 issue 4 – 22p.

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.

© Innovation Science and Research

© Authors



Editorial	
Editor in chief Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich	Bosh muharrir Jurayev Ziyovuddin Muhibdinovich
Preparing for publishing Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna	Nashrga tayyorlovchi Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna
MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD	
<p>Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich <i>Doctoral student (DSc) of the department "Study of Islamic Studies and Islamic Civilization ICESCO" of the International Islamic Academy of Uzbekistan, Faculty of Islamic Studies and International Relations</i></p> <p>Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna <i>Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi, candidate of philological Sciences</i></p> <p>Artikova Nargiza Shuxratovna <i>Teacher of the Department of theory of Primary Education at Chirchik State Pedagogical University</i></p> <p>Koziev Umidjon Yandashalievich <i>Head of the Department of Uzbek linguistics, PhD, Associate Professor member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"</i></p> <p>Dilfuza Jalolova <i>Candidate of Medical Sciences, Associate Professor of Samarkand State Medical University.</i></p> <p>Umarova Maxliyo Yunusovna <i>Uzbekistan State University of world languages, candidate of philosophical Sciences, Associate Professor</i></p> <p>Arslanov Sharafutdin Sultanovich <i>doctor of chemical sciences, professor</i></p> <p>Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences</i></p> <p>Oripov Orolboy Ahmedovich <i>Navoi State Pedagogical Institute, PhD</i></p> <p>Fazliyeva Zebo Kamarbekovna <i>Uzbekistan State Academy of choreography, associate professor</i></p> <p>Artikov Askar Akbarovich <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department "theory and methodology of football" of the Uzbek State University of physical education and sports</i></p>	

Darvishov Ibroxim

Associate professor of the Department of Uzbek linguistics member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"

Sevara Nazarova

Philosophy Doctor on Agricultural sciences, Associate Professor of the Department of Soil Science of Bukhara State University.

БУХГАЛТЕРИЯ ХОДИМЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

Худайкулов Амир Меликулович

*Термиз Давлат университети бухгалтерия ҳисоби ва аудит
кафедраси ўқитувчиси*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11424325>

Annotation: this article provides information on the rights and obligations of accounting personnel.

Keywords: duties, rights and responsibility of the Chief Accountant of the bank, electronic payment documents, deposit and other accounts.

Аннотация: Ушбу мақолада бухгалтерия ходимларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари борасида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Банк бош бухгалтерининг вазифалари, ҳуқуқлари ва жавобгарлиги, электрон тўлов ҳужжатлари, депозит ва бошقا ҳисобварақлар.

КИРИШ (Introduction)

биринчидан, экспорт қилинаётган товар ва хизматларнинг ташқи ва ички бозор нархлари ўртасидаги фарқдан ютиш; иккинчидан, ички харажатларни камайтириш мақсадида арzonроқ бўлган импортдан фойдаланиш эвазига миллий ишлаб чиқаришдан воз кечиши мумкин.

Жаҳон ҳўжалигини тизим сифатида кўриб чиқсанда XMT ни бу тизимни ташкил қилган бирлаштирувчи асос деб тасдиқлаш мумкин.

Саноат жиҳатдан тарақкий этган мамлакатда ишлаб чиқариш ташқи истеъмолчиларга, ички талаб эса импортга ё‘налтирилган бўлади, деб тахмин қилинмоқда. Ривожланаётган мамлакатларда ички бозорнинг нисбатан тез, аммо экстенсив тарзда кенгайиши кутилмоқда.

XMT ички таркибга ва ривожланиш усулларига эга. XMT нинг асосий ажralmas хусусиятлари ишлаб чиқаришнинг халқаро ихтисослашуви ва кооперациялашуви ҳисобланади.

Ишлаб чиқаришнинг халқаро ихтисослашуви. Ишлаб чиқаришнинг халқаро ихтисослашуви икки ё‘налиш бўйича ривожланади — ишлаб чиқариш ва ҳудудий.

Ўз навбатида, ишлаб чиқариш ё‘налиши:

- тармоқлараро ихтисослашув;
- тармоқлар ичра ихтисослашув;
- алоҳида корхоналар ихтисослашувига бўлинади.

Ишлаб чиқаришнинг халқаро ҳудудий ихтисослашуви муайян товарлар ва уларнинг қисмларининг жаҳон бозори учун ишлаб чиқаришга ихтисослашувини ўз ичига олади:

- алоҳида мамлакат;
- мамлакатлар гурухи;
- минтақалар.

Ишлаб чиқарышнинг халқаро ихтисослашуvinинг асосий турларига қўйидагилар киради:

- предметли (тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш) ихтисослашув;
- деталли (маҳсулот қисмлари ва компонентларини ишлаб чиқариш) ихтисослашув;
- технологик ёки босқичли (яъни, алоҳида технологик жараёнларни амалга ошириш. Масалан, йиг‘иш, бўяш ва ҳ. к.) ихтисослашув.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. 2017 йил 7 феврал.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида (янги таҳрири)”ги Қонуни. 2019 йил 11 ноябр.
3. Mehmonov S.U., Karimova Z.X., Tursunov A.S. Byudjet tizimi. Darslik. –Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. -544 b.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 5 ноябр.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Банк сири тўғрисида”ги қонуни. 2020 йил 30 август.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN JISMONIY MASHQLARDA QO'LLANILADIGAN USLUBIYATNING AHAMIYATI

Shomirzayev Lochin Zokirjon o'g'li
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat
yo'nalishi talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13840215>

Annotation: this article reflects information on the importance of the methodology used in physical exercises with preschool children.

Keywords: preschool age, healthy, energetic, genuine, cheerful, kind, enterprising, able to control his movement well, love physical education and sports exercises, be able to act independently in the environment.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagidan bolalar bilan jismoniy mashqlarda qo'llaniladigan uslubiyatning ahamiyati borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, sog'lom, baquvvat, chiniqqan, xushchaqchaq, mehribon, tashabbuskor, o'z harakatini yaxshi boshqara oladigan, jismoniy tarbiya va sport mashqlarini sevadigan, atrof-muhitda mustaqil harakat qila oladigan.

KIRISH. (Introduction)

Sport – jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarning turli majmualari bo'yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish tizimidir. Birinchi Birinchi Prezident sportga baho berar ekan, uni shunday talqin qildi: "Sport – o'zbek xalqiga qadimi an'ana. O'zbekistonimizda yuzlab xalq milliy sport o'yinlari bilan bir qatorda zamonaviy sport ham rivoj topayapti"¹ deb o'rinali ta'riflaganlar. Zamonaviy olimpiadaning asoschisi Per de Kuberten mashhur "Sport madhiyasi" yozgan va u oliy mukofot – Oltin medalga sazovor bo'lgan. Madhiyada aytlishicha, sport – bu hayotimizning doimiy yo'ldoshi, chinakam va ishonchli do'st. Sport bilan muntazam shug'ullanish ruh va tanaga quvonch baxsh etadi. Bu so'zlar va ta'riflar zamirida juda ko'p falsafiy mushohada boy ma'no-mazmun yotibdi.

Maktabgacha yoshdagidi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi bu – bola jismoniy tarbiyasi shakllanishining umumiyy qonuniyatlaridan saboq beruvchi fandir. Maktabgacha yoshdagidi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi jismoniy tarbiyaning umumiyy nazariyasi bilan yagona mazmunga va o'rganish predmetiga ega, ayni paytda u 7 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy tarbiyasi qonuniyatlarini va shunga muvofiq bolaning ta'lim va tarbiya jarayonidagi rivojlanishini boshqarishning umumiyy qonuniyatlarini maxsus o'rganadi.

¹ Президент И.Каримов билан олиб борилган сухбат. Спорт газетаси. 1994 й. 20-26 май.

Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi har bir yosh bosqichini o'rganib, ilmiy ma'lumotlar va amaliy tajribani umumlashtirib borib, jismoniy tarbiya vazifalarini belgilaydi, ularning mohiyatini, butun jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning juda samarali vositalari va metodlarini, maqsadga muvofiq shakllarini kompleks ravishda ochib beradi. Sog'lom, baquvvat, chiniqqan, xushchaqchaq, mehribon, tashabbuskor, o'z harakatini yaxshi boshqara oladigan, jismoniy tarbiya va sport mashqlarini sevadigan, atrof-muhitda mustaqil harakat qila oladigan, maktabdagagi o'qishga hamda kelgusidagi faol ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatli bola shaxsini shakllantirish, jismoniy tarbiyaning shaxsni har tomonlama rivojlantirish asoslari sifatidagi alohida ahamiyatini belgilab beruvchi muhim vazifasi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi ilk yoshdagi va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning quyidagi psixofiziologik xususiyatlarini o'z ichiga oladi: organizmning ish qobiliyati imkoniyatlari, yuzaga keluvchi qiziqish va ehtiyojlar, ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obraz va mantiqiy tafakkur formalari, ustun turuvchi faoliyat turining o'ziga xosligi, bu faoliyat rivojlanishi bilan bog'liq ravishda bola psixikasida muhim o'zgarishlar kechadi va "Bolaning yangi oliy rivojlanish bosqichiga o'tishi"ga tayyorlanadi. Shunga muvofiq bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tarbiyani tashkil qilish va ularni optimal pedagogik sharoitlarda amalga oshirishning barcha formalari mazmunini ishlab chiqadi. Jismoniy tarbiya nazariyasi har bir yosh bosqichdagi bolaning potensial imkoniyatlari qonuniyatlarini o'rganib va hisobga ola borib, jismoniy tarbiyaning butun ta'lim-tarbiya kompleksi ilmiy asoslangan dasturi talablarini (harakat, ko'nikma va malakalari, jismoniy sifatlar, ba'zi elementar bilimlarni) ko'zda tutadi. Ularni o'zlashtirish bolalarni maktabda o'qishi uchun zarur jismoniy tayyorgarlik darajasini ta'minlash imkonini beradi. Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama tarbiyalash ishining muhim komponenti hisoblanadi, ayni paytda u aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarini kompleks tarzda hal etadi. Bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil etishning turli shakllarida (mashg'ulotlar, harakatli o'yinlar, mustaqil harakat faoliyati va h.k.) tarbiyachining e'tibori fikrlaydigan, o'z yosh imkoniyatlariga ko'ra ongli harakat qiladigan, harakat ko'nikmalarini muvaffaqiyat bilan egallaydigan, atrof-muhitda mo'ljal ola biladigan, uchraydigan qiyinchiliklarni faol tarzda bartaraf etadigan, ijodiy izlanishga intiladigan bolani tarbiyalashga qaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog'lom va baquvvat qilib o'stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta'lim va tarbiyani to'g'ri tashkil etishdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lomlashtirish vazifalari - bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi bo'lib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sog'lig'ini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish yo'li bilan o'zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirishdan iborat. Bola organizmining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgani sababli, uning vazifalari ancha aniqroq shaklda ifodalanadi; bola suyagini bexato va o'z vaqtida qotishiga orqa umurtqadagi egik joylarning shakll anishiga, tovon yuzasining yaxshi rivojlanishiga, pay-bo'g'im apparatlarni pishitishga yordam ko'rsatiladi.

Tana qismlarining (proporsiyalar) to'g'ri nisbatda rivojlanishiga, suyaklar o'sishi va vaznini bir tartibga solishga yordam berish; barcha muskullar guruhini rivojlantirish (tana,

oyoq, qo‘l va yelka kamari, panja, barmoqlar, tovon, bo‘yin, ko‘z, ichki organlar - yurak-qon tomirlar, nafas olish va boshqa muskullar); ayniqsa, zaif rivojlangan bukuvchi muskullar guruhining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. Yurak-qon tomirlari va nafas olish tizimlari faoliyatini takomillashtirishga yordam berish, ya’ni yurakka qon oqishini kuchaytirish, uning qisqarishi ritmini yaxshilash va to‘satdan o‘zgaradigan yuklamaga moslashish qobilyatini rivojlantirish; ko‘krak qafasi hatakatchanligini o‘stirish, chuqur nafas olish, uning ritmi barqarorligiga, o‘pka sig‘imini oshirishga yordam berish, burundan nafas olishni yaxshilash; ichki organlarning (ovqat hazm qilish, modda ajralish va boshqalar) to‘g‘ri ishlashiga yordamlashish; termoregulatsiya funksiyasining to‘g‘ri rivojlanishiga ko‘maklashish. Markaziy asab tizimining faoliyatini takomillashtirish: qo‘zg‘alish va tormozlanish, ularning harakatchanligi jarayonlarining muqobilligiga, shuningdek, harakat analizatori, sezgi organlarining takomillashuviga yordam berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida ta’limiy vazifalarni hal etish ham muhimdir. Chunonchi: harakat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko‘z bilan chamalash, kuchlilik, chidamlilik)ni o‘stirish, to‘g‘ri qaddi-qomat, gigiyena ko‘nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish.

Bolalar asab tizimining plastikligi tufayli ularda harakat ko‘nikmalari nisbatan yengil shakllanadi. Ularning ko‘pchiligidan (emaklash, yurish, chang‘ida yurish, velosipedda sayr qilish va boshqalar) kundalik hayotda harakat vositasi sifatida foydalilanadi. Harakat ko‘nikmalari tashqi muhit bilan aloqani osonlashtiradi va uni bilishga yordam beradi: bola emaklab o‘zini qiziqtirgan narsalarga yaqinlashadi va ular bilan tanishadi; velosipedda sayr qila oladigan bolalar qor, shamollarni oson idrok etadilar; suzish chog‘ida esa bolalar suvning xossalari bilan tanishadilar.

Jismoniy tarbiya mashqlarini to‘g‘ri bajarish muskullar, paylar, bo‘g‘imlar, suyak tizimini rivojlantirishga samarali ta’sir qiladi. Mustahkam shakllangan harakat ko‘nikmalaridan foydalinish bolaga mashqlarni bajarishda jismoniy kuchni tejash va o‘yin faoliyatida e’tiborni kutilmagan vaziyatlarda yuzaga keladigan turli vazifalarni olishga yo‘naltirish imkonini beradi. Bolalarda 7 yoshgacha shakllangan harakat ko‘nikmalari maktabda ularni yanada takomillashtirish uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi va kelajakda sportda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Bolalarda harakat ko‘nikmalarining shakllanishi jarayonida birmuncha murakkabroq harakatlar va bu harakatlarni o‘z ichiga oluvchi turli faoliyat turlarini osongina egallash qobiliyati hosil qilinadi.

Yosh guruhlarga oid harakat ko‘nikmalarining hajmi dasturda berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda saflanish, umum-rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, sport mashqlarini bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Bundan tashqari, bolalarni sport o‘yinlariga (Badminton, stol tennisi) va sport o‘yinlari elementlari (basketbol, xokkey, futbol, voleybol)ni bajarishga o‘rgatish zarur. Harakat ko‘nikmalari hajmi maktabgacha ta’lim muassasalarida sharoitning mavjudligi, bolalarning jismoniy tayyorgarligi, tarbiyachilarning malakasi, ota-onalar yordamiga qarab kengaytirilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarni, o‘tirgan, turgan holatda va yurganda qaddi-qomatni to‘g‘ri tutish ko‘nikmalariga o‘rgatish muhim. Bu yoshda shaxsiy va ijtimoiy gigiyenaning boshlang‘ich ko‘nikmalari (qo‘l yuvish, kiyim-kechak, poyabzalni yaxshi

tutish, o‘yinchoqlar, jismoniy inventarlari, xona va hokazolarni toza tutish) ko‘nikmalarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg‘ulotlarning foydasi haqidagi, jismoniy mashqlarning ahamiyati va texnikasi, ularni o‘tkazish metodikasi haqidagi, harakatli o‘yinlar va hokazolar haqidagi jismoniy tarbiyaga oid bilimlarni berish muhimdir. Bolalar gavda qismlarning nomini, harakat yo‘nalishi (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o‘ngga, chapga, to‘la aylanish va boshqalar), jismoniy inventarlarning nomini, ularni saqlash, kiyim, poyabzallardan to‘g‘ri foydalanish va ularga qarash qoidasini bilishlari lozim.

Olingan bilimlar bolalarga jismoniy mashqlar bilan juda ongli va to‘laqonli shug‘ullanish, maktabgacha ta’lim muassasa va oiladagi jismoniy tarbiya vositalaridan mustaqil foydalanish imkonini beradi. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish jarayonida tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot, hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash zarur.

Bolalarda harakat faoliyati sohasida olingan bilim va ko‘- nikmalardan faollik, mustaqillik, fahmlilik, ziyraklik va topqirlik ko‘rsatgan holda ijodiy foydalana olish malakasini tarbiyalash zarur. Bolalarda ijobjiy emotsiyalar, tetik, xushchaqchaq kayfiyatni tarbiyalash, shuningdek, salbiy ruhiy holatni tezda yengib o‘tish malakasini rivojlantirish juda muhimdir. Bu shuning uchun ham zarurki, ijobjiy emotsiyalar barcha organlar va organizm tizimlari ishiga yaxshi ta’sir qiladi, harakat ko‘nikmalarining tez va barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

Jismoniy tarbiya estetik tarbiyani amalga oshirish uchun qulaylik yaratadi. Mashqlarni bajarish jarayonida estetik zavqni his qilish va idrok etish, go‘zallikni, harakatlarning ifodalilagini, qomatning nafisligini, kiyim-bosh, sport inventarlari, tevarakatrofning go‘zalligini tushunish va to‘g‘ri baholay olish qobiliyatini rivojlantirish; estetik jihatdan ma’qul xulqqa intilishni, faoliyat, so‘z va xatti-harakatda qo‘pollikka murosasiz bo‘lishni tarbiyalash lozim. Mehnat tarbiyasi ham jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bolalar sog‘lig‘i mustahkamlanadi, harakat ko‘ nikmalari shakllanadi, mehnat qilish uchun zarur bo‘lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi. Bolalar binoni, maydonchani jihozlash (sakrash uchun qum to‘ldirilgan o‘ralar, qor uyumlari), jismoniy tarbiya inventarini yasash va ta’mirlash (uloqtirish uchun qopchalar tikish, ni t honlarni bo‘yash va hokazo), sport kiyimlari, poyabzalini saqlash, ularga qarash, bino va uchastkani mashg‘ulotga tayyorlash (uchastkani qordan tozalash, to‘kilgan barglarni yig‘ib olish, maydonchaga suv quyish va hokazo) jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida jismoniy inventarlar, atributlar, o‘yinchoqlarni yig‘ib olish va joy-joyiga qo‘yish bilan bog‘liq mehnat ko‘nikmalarini egallaydilar.

Adabiyotlar:

1. Jalolova G.Q. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash” (metodik tavsiya). Toshkent, 2004
2. A.Abdullaev tahriri ostida. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. Farg`ona – 2008.
3. Ma`murov B.B. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2014. 229 b.

4. Maxmudov B.A. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (harakatli o‘yinlar). O‘quv qo‘llanma. TDPU nashriyoti. Toshkent – 2018 y. 144 b.

**TALABALARDA AXBOROT VA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI
IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH**

Umarov Ismoiljon Olimjonovich
*Fag'onan davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi
rezervdagi podpolkovnik*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13857915>

Annotation: *in order to protect our people from various ideological and ideological threats, to create an ideological immuniet in society, it must first be armed with a healthy, humane idea and ideology that deeply reflects the laws of progress. We can preserve and further elevate Milat's ideology only by protecting our self, decency, heritage, values and nationality from the influence of harmful ideas and ideologies, forming ideological immunity in the hearts of our opponents and youth.*

Keywords: *ideological immunity, fanatical currents, popular culture, corruption, crime, ideological threat, religious extremism, fundamentalism, nationalism, missianism, ideological void, freedom of expression.*

Annotatsiya: *Xalqimizni turli g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immuniet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar g'oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. O'zligimizni, odob – axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliyruhimizni zararli g'oyalari va mafkuralar ta'siridan avaylab-asrash, ularga qarshifuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqaligina milatni mafkurasini asrash va yanada yuksaltirishimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *mafkuraviy immunitet, aqidaparast oqimlar, ommaviy madaniyat, korrupsiya, jinoyatchilik, mafkuraviy tahdid, diniy ekstremizm, fundamentalizm, millatchilik, missianerlik, mafkuraviy bo'shliq, so'z erkinligi.*

Kirish qism: Axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish–davr talabi. Bugungi tahlikali zamonda, globallashuv davrida, ayniqsa, g'oyalari kurashikeskin tus olgan paytda asosli, hayotiy, samarali targ'ibot va tashviqot xalqni ishontiradi, ruhlantiradi, ulug' va qutlug' maqsadlar sari ilhomlantiradi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyatoldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf – xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota – onasiga, o'z yurtiga qarshiqayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda.

Bunday keskin va tahlikalisharoitda biz ota- onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. "Bolalarimizni birov larning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim". So'nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron

ko‘rinishda tarqatish, “Internet” orqali targ‘ibot o‘tkazish, yashirin “Hujralar”tashkil etish kabi usullarda amalga oshirmoqda.

Ayniqsa, Internet tarmog‘ida “Iroq davlati”, “Jabat al-Nusra” kabi terroristik tashkilotlar guyoki islom ravnaqi yo‘lida kurashayotgan “Mujohid birodarlar guruhi” ekani haqidagi targ‘ibot-tashviqot keng ko‘lamba olib borilayotgani, buning oqibatida dunyoning ko‘plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar “hijrat” qilish va “jihad”da ishtirok etish da’vosida Suriya va Iroq hududiga borib, ushbu guruh safiga qo‘shilayotganing guvohi bo‘lmoqdamiz. Mutaassib oqim a’zolarining bosh maqsadi “jihad”, “hijrat”, “shahidlik”, “kofir bo‘lish” kabi diniy tushunchalarini soxta talqin qilish orqali yoshlарimizni qurolli to‘qnashuvlar ketayotgan Suriya, Iroq, Afg‘onistoni yoki Pokiston kabi mamlakatlarga jo‘natib, “manqurt – jangari” yoki “tirik bomba”ga aylantirishdan iborat. Internet va yuqori texnologiyalar tufayli dunyoda madaniyatlar va davlatlar o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolib bormoqda.

Asosiy qism: Hozirda Internet tarmoqlarida buzg‘unchilik, zo‘ravonlik va axloqsizlikni, “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib etadigan saytlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ana shunday keskin va murakkab axborot xurujlari va xavf-xatarlarga biz qanday qarshi tura olamiz? Ayni vaqtda, yoshlarning turli norasmiy, noislomiy diniy jamoalarning ta’siriga tushib qolishining oldini olishda o‘quv muassasalari va mahalla tomonidan tizimli ravishda tushuntirish ishlari olib borishi muhim o‘rin tutadi. Yoshlarda yot g‘oyalarga nisbatan ma’naviy immunitet shakllanmas ekan, “bu – yaxshi, bu – yomon” degan qat’iy fikr paydo bo‘lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo‘ldi. Xalqimizda “Yaxshi bola yurt tuzar, yomoni elni buzar” degan purhikmatli gap bor. Yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo‘sish har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha fuqarolarning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolmog‘i lozim. Mustaqilligimizni asrab-avaylashga chorlaydi. Muhimi, tinchlik-totuvlik, mehr-oqibat bor ekan, o‘z orzu-maqsadlarimizga albatta erishamiz. Xavfsizlikka tahdidning mazmun-mohiyati “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida umummetodologik, siyosiy-falsafiy tomonidan yetarlicha yoritib berilgan edi. Mazkur kitobning 1-bobida muallif mintaqaviy mojarolar; diniy ekstremizm va fundamentalizm; buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik; etnik va millatlararo ziddiyatlar; korrupsiya va jinoyatchilik; mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik munosabatlari; ekologik muammolar xavfsizlikka tahdid solishini batafsil va teran ifodalab beradi. Mafkuraviy tahdid oz mohiyatidan kelib chiqib, eng avvalo, inson ongiga, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar solmoqda. Inson ongi va kalbini vayronkor xamda buzgunchi goyalar bilan izdan chikarishga harakat qilish mafkuraviy tahdidning eng asosiy mazmun-mohiyatini belgilaydi. Mafkuraviy tahdid muayyan jamiyat a’zolarini yagona maqsad va muddaolardan chalgitib, milliy mentalitetga mos kelmaydigan begona goyalar, fikrlar, maqsadlar va karashlarni chetdan turib eksport qilish jarayonida ozini yanada anikroq namoyon qiladi.

O‘zbekistonga xuruj qilayotgan mafkuraviy tahdidlar va ularning turlarini quyidagicha sanash mumkin: 1.Diniy ekstremizm va fundamentalizm. 2.Buyuk davlatchilik va agressiv millatchilik. 3.Xalqaro terrozim. 4.Axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi

harakatlar. 5.Ommaviy madaniyat 6.Missionerlik Bu kabi tahdidlar bizni o‘z domiga tortib ketmasligi uchun bizga milliy imunitetni rivojlantirish zarur. Bu kabi tahdidlar bizni o‘z domiga tortib ketmasligi uchun bizga milliy imunitetni rivojlantirish zarur.

Buning uchun biz quyidagi sohalarni chuqur rivojlantirishimiz lozim bo‘ladi: 1. Ta’lim tizimini rivojlantirish. Va ilg‘or fikrlovchi yoshlarni ko‘paytirish. 2. So‘z erkinligini ta’minalash. Jurnalist xodimlar dunyoda va atrofimida yuz berayotgan jarayonlarni xolis yortib beradigan axbarot maydonini yuzaga keltirishi va biz ishonchli va xolis ma’lumotlarni o‘z ommaviy axbarot vaositalarimizdan qabul qilishimiz kerak bo‘ladi. 3. Dinni yaxshi anglash. Yuqorifagi tahdidlarga e’tibor qaratsangiz asosiy tahdidlar e’tiqod va an’analarga bog‘liq ekanligini ko‘rasiz. O‘zbek madaniyati, o‘zbek urf-odatlari asosan islom dini asosiga qurilgan. Millatimizning har bir xatti-harakatida, marosimlarida islom dinining ta’sirini sezish qiyin emas. Shu sababli dinni yaxshi anglash, buning uchun yetarli shart sharoitlar yaratish o‘ta muhim masala hisoblanadi. Shu va boshqa tarmoqlarni yanada rivojlanishi bizga tashqaridan krib kelayotgan g‘oyaviy tahdidlarga munosib ziddi zahar bo‘la oladi. Bir narsa aniqki, biz uchun tashqaridan madad kelmaydi, o‘zimiz uchun o‘zimiz harakat qilishimiz lozim. Va avvaloam bor har bir fuqaro o‘z shaxsiy rivojlanishini yo‘lga qo‘ysa, butun millat isloh bo‘ladi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma’naviyat va qadriyatlarning o‘rni ekstremizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar ichida mafkuraviy bo‘shliqning ta’siri kattadir. Mafkuraviy bo‘shliq kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy voqelikni noto‘g‘ri idrok etishga, ularning ongida aggressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan bo‘shliqni nosog‘lom g‘oyalar bilan to‘ldirishga zamin yaratadi. “Manqurtlashtirish” deb ataladigan bu texnologiya kuchsiz ma’naviyat, bo‘sh iroda va nosog‘lom intilishlar muhitidagina ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g‘oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo‘qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o‘rni katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g‘oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy ishlar majmuini, to‘g‘ri tashkil etilgan tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, inson ma’naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Mamlakatimiz xavfsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo‘lmish o‘sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirish ya’ni ularni turli xil yot va zararli g‘oyalar ta’siridan himoya qilish orqali ularning mafkuraviy immunitetini shakllanish lozimligini bugungi davrning o‘zi talab qilmoqda. Agar bu tushunchani qurollantirish emas, balki qurollanmog‘i kerak desak, bevosita ularni o‘z holiga tashlab qo‘yan va ko‘ziga “yaltirab” ko‘ringan narsani o‘zlashtirishga sharoit yaratgan bo‘lamiz. Pok qalbli yoshlarimizni, pok niyatlarini o‘grinchalib olgan va ularning ezgu g‘oyalarini asta-sekinlik bilan yot g‘oyaga aylantirishga sabab bo‘layotgan, faqat sirtidangina jozibador, asli esa puch bo‘lgan g‘oyalar ta’siridan qutulishning birdan-bir yo‘li bu – ma’rifatdir. Demak, biz yoshlar “Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” kerakligiga har doim ham amal qilish lozimligini unutmasligimiz kerak.

Xulosa: Bugungi kunda yoshlarimizni turli xil yet va zararli g'oyalalar va vayronkor g'oyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ularning dunyoqarashini boyitish, Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g'ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual – ma'naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan yuksak malakali mutaxassis kadrlar etib tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz ta'kitlab o'tkanidek: Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan,yuksak intelektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib,dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kalom topishi,baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari. 1-bob.
2. Sh.Mirziyoyev. Erkin va faravon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T: O'zbekiston 2016.14-bet
3. Ergashev I va boshqalar.Milliy istiqlol g'oyasi:O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik.T.:Akademiya-2005.93 bet
4. Tashmetov.T.X (2020).Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning tarbiyadagi axamiyati."Science and Education" Scientific Journa, 1(7), 617-624. 5. Falsafa: Qomusiy lug'at.T.Sharq,2004.160-bet.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYASINING
ASOSIY XUSUSIYATLARI**

Shomirzayev Lochin Zokirjon o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika Instituti Jismoniy madaniyat
yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13857944>

Annotation: this article reflects information on the main features of the physical education of preschool children.

Keywords: extensive use of Gaming Technologies, maturation of feelings of loyalty to the motherland, explanation of the exercise, instruction, command, story, conversation.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagи bolalar jismoniy tarbiyasining asosiy xususiyatlari borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: O'yinli texnologiyalardan keng foydalanish, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, mashqni tushuntirish, ko'rsatma, buyruq berish, hikoya, suhbat.

KIRISH. (Introduction)

Respublikamizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqlari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019 yil 16 avgust kuni ta'lim tizimidagi islohotlarning borishi bo'yicha majlis o'tkazdi. Prezidentimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy ta'lim yaratish masalasiga to'xtalib o'tdi. Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish, bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalrdan biri ekanligini ta'kidladi. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishiko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim tashkilotida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash ham muhim didaktik talablardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida, ertalabki sog'lomlashtirish

ishlarida, sayr va ekskurtsiyalarda bolalarda chaqqonlik, kuchlilik, epchillik, matonat, egiluvchanlik, irodalilik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar ma'naiy-axloqiy sifatlar bilan rivojlantirib boriladi. Ta'lim metodlari bir qancha usullar tizimini o'quv masalalariga qarab bir-biriga qo'shib olib borishni, bunda aniq didaktik masalalari, o'qitishni real vosita va shartlarni hisobga olishni nazarda tutadi. Jismoniy tarbiya berish jarayonida bunday metodlar ichida eng asosiysi "Jismoniy zo'riqishni muvofiqlashtirish usuli hamda bu zo'riqishlarni dam olish bilan qo'shib olib borish tartibi" hisoblanadi.

Bolaning asab tizimi butun organizmi favqulodda egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lib, tashqi ta'sirlarga juda beriluvchandir. Shuning uchun ham harakatlarni dam olish bilan almashtirib turilishi bilan organizm dinamikasining optimalligini belgilaydi, tiklanish jarayonini o'z vaqtida kechishini ta'minlaydi va ish qobiliyatini oshiradi. Zo'riqish bir tomondan mashqlarning organizmga ko'rsatadigan ta'sirida va bu mashqlar faolligida ifoda etilsa, ikkinchi tomondan bola aqliy faoliyatining psixik funksiyasi dinamikasiga ko'rsatadigan ta'sirida o'z ifodasini topadi. Bunda bolaning tushuntirilayotgan fanning qunt bilan idrok etishi, ko'rsatib berilgan mashqlarni o'rganib olishi, topshiriqni ilg'ab olishi, undagi javob reaktsiyasining aniqligida va boshqa shu kabilarda ifoda etadi.

Mashqlar o'z harakatiga oid xususiyati, murakkabligi, bajarilish vaqtি bo'yicha hamda emottsional ta'siriga ko'ra bir-biriga muvofiq kelishi muhim ahamiyatga egadir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashning ko'rgazmali bo'lishi jismoniy mashqlarni to'g'ri va aniq ko'rsatib berilishi orqali, imo-ishorani keng qo'llash orqali, joylardagi mo'ljal hamda ko'rgazmali qurollar: harakat qiluvchi qo'g'irchoqlar, diafilimlar va boshqalardan foydalanish orqali ta'minlanadi Teri-muskul sezgilarining to'g'ri shakllanishiga harakatlarning keng yoki davomli, jadal bo'lishini ta'minlaydigan asboblarning qo'llanishi yaxshi yordam beradi. Harakatlarni tovush orqali (musiqa, qo'shiq, sanoq va boshqalar orqali) tartibga solinishi mashq xususiyatini, uning sur'ati va maromini ifoda etib, bolalarda ko'tarinki kayfiyat uyg'otadi. Bir-biriga qo'shib olib borilgan ko'rgazmalilikning har xil shakllari harakatlar to'g'risida ancha to'liq tasavvur paydo qilishga ko'maklashib, u harakatlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Jismoniy mashqlarga o'rgatish metodlari. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda so'zlab berish (mashqni tushuntirish, ko'rsatma, buyruq berish, hikoya, suhbat), ko'rgazmali mashg'ulot (ko'rsatib berish, imo-ishora — taqlid qilish, tovush va ko'rish mo'ljallari, ko'rgazmali qurollardan foydalanish), amaliy metod (mashqlar, aniq topshiriqlar, o'yin usullari, madad va yordam berish) kabi metodlar ham ijobjiy samara beradi. Kichik guruhlarda ko'rsatib berish metodi ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Kichkintoylar o'zları ko'rib turgan harakatlarni juda yaxshi qabul qiladilar. Shuning uchun harakatning murakkabligi yoki yengilligidan qat'i nazar mashqni bajarib ko'rsatadi. Ko'rsatish davomida ularni oddiy va tushunarli holda izohlab beradi (ikki oyoqlab qanday sakrash kerakligini ko'rsatib beradida, shu zahoti balandroq, yengilroq, oyoq uchlarida sakrash zarurligini tushuntiradi). Katta guruhlarda esa bolalar uncha murakkab bo'limgan va o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan mashqlarni tarbiyachi tushuntirib bergenidan keyin, u garchi u mashqni ko'rsatib bermasa ham bemalol bajarishlari mumkin. Yangi mashqlarni barcha yosh guruhlarda ham ko'rsatib berish maqsadga muvofiqlashtirish usuli hamda bu zo'riqishlarni dam olish bilan qo'shib olib borish tartibi" hisoblanadi.

to'g'risida aniq va to'g'ri tasavvur hosil qilishlari uchun mashqni qisqa, puxta va ifodali ravishda izohlab berish kerak. Izoh bolalarning kamolot darajasiga muvofiq kelishi, tasvirli bo'lishi lozim. Tasvirlarning mashqlar mohiyatini aks ettirishi va ularni yaxshiroq bajarishga yordam berishi muhimdir. Mashqlarni to'g'ri, badiiy tilda izohlash, ovozning xilma-xil ohanglaridan ustalik bilan foydalanish lozim.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni harakatlarga o'rgatishda o'yin metodidan va o'yinli texnologiyalardan keng foydalaniladi. Kichik guruhlarda harakatlarga o'rgatish vaqtida o'yin usullaridan foydalaniladi. Bunda bolalarning turli hayvonlar harakatiga, insonga xos xatti-harakatlarga taqlid qilishiga asoslangan o'yinlar o'ynaladi: bolalar qushcha bo'lib uchadilar, eshkakchi singari eshkak eshadilar va hokazo. Bunday taqlidiy harakatlar mashg'ulotlarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Kichkintoylar umumiy bir mazmunga birlashtirilgan harakatlarni qunt bilan bajaradilar: faraz qilinayotgan samolyotda uchadilar, poezdda sayohatga jo'nab ketadilar va boshqa shu singari o'yinlarni bajaradilar. Ularni bunday o'yinlar bilan bogliq bo'lган mashqlarning ko'tarinki ruhda bo'lishi o'ziga tortadi. Bolalar bunday mashqlarda harakatlarni o'zlaricha shaxsiy sur'atda bajarish imkoniyatiga ega ekanliklari ham ularni qiziqtiradi. Taqlid qilinadigan tasvirlar bolalar hayotig'a yaqin, ularga tushunarli bo'lishi kerak, chunki bolalar mazkur o'yindagi o'ziga xos xususiyatlarni o'z harakatlarida oson ifoda eta olishlari kerak. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagи bolalarni tasvir bilan yaqqol va emotsiyonal ruhda tanishtirar ekan, o'z oldiga qo'yilgan maqsadga javob beradigan eng asosiy harakatlarnigina ta'kidlab o'tadi.

Harakatli o'yinlarda o'yin mazmunini shakllanishiga yordam beruvchi matnlar, sherdan foydalanish mumkin. Ular orqali bolalar tegishli harakatlarni bajaradilar. Og'zaki ko'rsatma. Ruhshunos va pedagoglarning tadqiqotlari 4,5 va ayniqsa 6 yoshli bolalar o'ziga mos turli harakat faoliyatining vazifa va shartlarini tushunib olishda yetarli tayyorgarlikka ega ekanliklarini ko'rsatmoqda. Bu harakat ko'nikmalarini shakllantirishda og'zaki ta'sir etish usullaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ular faqat ko'nikmalarni egallash sur'atini emas, balki sifatini ham oshiradi. Maktabgacha yoshdagи bolalar jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda gigienik omillar, tabiatning tabiiy kuchlari va jismoniy mashqlar va boshqalardan foydalaniladi. Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talabalarida belgilangan rivojlanish sohalari kompetentsiyalariga integratsion yondashuvni amalga oshirish, maktabgacha talim yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish tizimi va texnologiyasini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish, maktabgacha talim yoshidagi bolalarni jismonan soglon barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi .

Jismoniy barkamollik organizmning biologik ishonchliligi, yuqori tarzdagi individual jismoniy qobiliyat asosida yetuklik hamda mustahkam sog'lik negizida uzoq umr ko'rish holatlarida namoyon bo'ladi. Farzandlarimizning jismoniy barkamolligi mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning asosiy negizini tashkil yetadigan har tomonlama yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash va voyaga yetkazish jarayonining asosiy bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb yetadi.

Adabiyotlar:

1. Maxmudov B.A. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (harakatli o‘yinlar). O‘quv qo‘llanma. TDPU nashriyoti. Toshkent – 2018 y. 144 b.
2. A.Abdullaev tahriri ostida. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. Farg`ona – 2008.
3. Ma`murov B.B. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2014. 229 b.
4. Jalolova G.Q. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash” (metodik tavsiya). Toshkent, 2004

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЬЕ

1.	Худайкулов Амир Меликулович <u>БУХГАЛТЕРИЯ ХОДИМЛАРИНИНГ ХУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ</u>	5
2.	Shomirzayev Lochin Zokirjon o'g'li <u>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN JISMONIY MASHQLARDA QO'LLANILADIGAN USLUBIYATNING AHAMIYATI</u>	8
3.	Umarov Ismoiljon Olimjonovich <u>TALABALARDA AXBOROT VA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH</u>	13
4.	Shomirzayev Lochin Zokirjon o'g'li <u>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI</u>	17

Note!!! The numbers in the articles included in the journal "Innovation Science and Research" indicate that the information is correct and that the authors are personally responsible for the content of the article.

**International Scientific Journal
Innovation Science and Research
Volume 2 Issue 4**

LLC “Innovation Science and Research”

License №:083239 23.05.2023

Address: Uzbekistan, Tashkent city, Almazar District, Beshkurgan-3 1/84

Sciencejournal.uz, https://t.me/sciencejournals_uz